INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TARJIMA JARAYONIDA LEKSIK MUAMMOLAR

Raxmatullayeva Madina Fatxullayevna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
XTA 23/1 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21791611

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi tarjima qilish jarayoni davomida yuzaga keladigan leksik muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda polisemiya, sinonimiya, frazeologik birliklar va milliy-madaniy xos so‘zlarning tarjimasi masalalari ko‘rib chiqiladi

КАЛИТ СЎЗЛАР

tarjima jarayoni, leksik muammolar, agglutinativ til, polisemiya, frazeologik birliklar, milliy-madaniy xoslik,Ingliz tili,muammolar.

ABSTRACT

This article analyzes lexical problems that arise in the process of translation between English and Uzbek. It examines issues related to polysemy, synonymy, phraseological units, and nationally specific vocabulary.

KEY WORDS

translation process, lexical problems, Agglutinative language, polysemy, phraseological units, nationally specific vocabulary, English language, problems.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются лексические проблемы, возникающие в процессе перевода между английским и узбекским языками. Рассматриваются вопросы полисемии, синонимии, перевода фразеологических единиц и национально-культурной лексики.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

процесс перевода, лексические проблемы, Агглютинативный язык, полисемия, фразеологизмы, национально-культурная лексика, Английский язык, проблемы

KIRISH

Bugungi globallashgan dunyoda turli xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonda tarjima faoliyati muhim kommunikativ vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima nafaqat matnni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish, balki mazmun, uslub va milliy-madaniy

xususiyatlarni to‘g‘ri yetkazish jarayonidir.Ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning leksik tizimi, semantik tuzilishi va frazeologik boyligi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, ko‘p ma’nolilik (polisemiya), sinonimiya, frazeologik birliklar hamda milliy-madaniy so‘zlarning tarjimasi tarjimon oldida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ba’zi hollarda bir tilda mavjud bo‘lgan tushuncha boshqa tilda to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin. Qolaversa,ayrim leksik birliklar tarjima jarayonida o‘zining semantik teranligi yoki badiiy-estetik ta’sir kuchini qisman yo‘qotishi mumkin. Shu bois tarjimon faqat til qoidalarini biluvchi mutaxassis emas, balki madaniyatlar o‘rtasida mazmunni to‘g‘ri yetkazuvchi vositachi sifatida ham faoliyat olib borishi zarur.

Asosiy qism: Tarjima shunchaki bir tilni ikkinchi tilga o‘girish jarayoni emas. U xalqlar, madaniyatlar va ilm-fan o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bir tilni bilmaydigan inson tarjima orqali boshqa xalqning madaniy merosi, tarixi va ilmiy yutuqlari bilan tanishadi. Ayniqsa, texnologiya va ilm-fan rivojlanayotgan zamonda tarjimaning ahamiyati yanada ortmoqda. Masalan, texnik qo‘llanma yoki ilmiy maqola noto‘g‘ri tarjima qilinsa, bu tushunmovchilikka yoki hatto jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Shunday ekan, tarjimon nafaqat tilni bilishi, balki mazmunni chuqur anglay olishi ham zarur. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimada yuzaga keladigan muammolar, avvalo, ularning tipologik farqlari bilan bog‘liq. O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lib, grammatik ma’nolar qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. Ingliz tili esa analitik xususiyatga ega bo‘lib, yordamchi fe’llar va o‘zgarmas so‘z tartibi orqali grammatik ma’no beradi. Masalan, o‘zbek tilida gap odatda ega–to‘ldiruvchi–kesim tartibida tuziladi, ingliz tilida esa ega–kesim–to‘ldiruvchi modeli qo‘llanadi. Ushbu farq tarjima jarayonida gapni qayta tuzishni, ya’ni sintaktik moslashtirishni talab qiladi. Leksik muammolar esa yanada murakkabroqdir. Har doim ham bir tildagi so‘z ikkinchi tilda to‘liq muqobilga ega bo‘lavermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “baraka” so‘zi ko‘pincha ingliz tiliga “blessing” deb tarjima qilinadi. Biroq “blessing” so‘zi asosan ne’mat, ilohiy sovg‘a ma’nolariga yaqinroq. Bu yerda oddiy lug‘aviy muqobil yetarli emas, shuning uchun tarjimon qo‘shimcha izoh yoki tasvir orqali kontekstni tushuntirishi zarur bo‘ladi. Frazeologik birliklar tarjimasi ham o‘ziga xos murakkablik tug‘diradi. Masalan, ingliz tilidagi “let the cat out of the bag” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, ma’nosiz bo‘ladi. Shuning uchun u o‘zbek tiliga “sirni oshkor qilib qo‘yish” tarzida tarjima qilinadi. Bunda ortiqcha obrazlar tarjima qilinmaydi, biroq ma’no saqlangan holatda qoladi.Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi “qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq” iborasi ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, tushunarsiz bo‘ladi, shu sababli ushbu iborani ingliz tiliga “to give someone hollow promises” shaklida tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan tashqari, tarjimon har bir jumla, ibora yoki metaforani tarjima qilarkan, matnning uslubini, ma’naviy mazmunini saqlab qola olishi kerak.

Ingliz tilidagi asardan: “All the world’s a stage,
And all the men and women merely players”
So‘zma-so‘z tarjima: “Butun dunyo sahna,
Va barcha erkaklar va ayollar shunchaki aktyorlar”
Badiiy, kontekstga mos tarjima: “Dunyo bir sahna,
Undagi har bir inson esa o‘z rolini ijro etuvchi aktyor.”

Ko‘rinib turibdiki, so‘zma-so‘z tarjimada ma’no biroz anglashilgan hamda badiiy ifoda sifati buzilgan. Shunday ekan, tarjimada ko‘pincha so‘zma-so‘zlikdan ko‘ra kommunikativ maqsad ustuvor bo‘ladi. Qolaversa, ikki mamlakat o‘rtasidagi madaniy tafovutlar ham tarjima qilish jarayonini murakkablashtirishga xizmat qiladi.Ingliz matnlarida, asosan, G‘arb kontekstiga, individualism va nasroniylik an’analari aks ettirilsa, o‘zbek tilida yozilgan asarlarda esa jamoaviylik va Markaziy Osiyo qadriyatlari yoritiladi.Masalan, “Thanksgiving” bayrami ingliz tilidagi ko‘pchilik matnlarda uchraydi, biroq bu bayram o‘zbek madaniyatiga begona hisoblanadi.Shunday ekan, tarjimon tarjima qilish davomida ushbu bayram uchun qo‘shimcha izoh berib ketishi zarur.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayoni faqat so‘zlarni boshqa tilga ko‘chirish emas, balki madaniyatlar, tarix hamda qadriyatlarni boshqa tilda odamlarga yetkazishdir. O‘zbek va ingliz tillari turli til oilalariga tegishliligi, ulardan foydalanadigan insonlarning madaniyatlari turlichaligi sababli ikkala til o‘rtasida leksik birikmalarning muqobil so‘zni topib, tarjima qilish tarjimonlarga ancha qiyinchilik yuzaga keltiradi. Shu sababli tarjimon lingvistik bilim bilan bir qatorda tarjima qilinayotgan til madaniyatini bilishi, kontekstni yetarli darajada anglash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmonova G.R. LEXICAL DIFFERENCES BETWEEN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGE AND THEIR TRANSLATION (2026). International journal of artificial intelligence, 6(1)
2. Tilavova D.S. & Sattorova N.I. (2023). LEXICAL PROBLEMS IN TRANSLATION BETWEEN ENGLISH LANGUAGE AND UZBEK LANGUAGE. Journal of New Century Innovations, 42(1), 75–77.
3. Poppe N. Introduction to Altaic Linguistics. – 1965.
4. Achilov, O. R., & Todjidinova, U. O. (2023). Tarjimonlik va tarjima madaniyati muammolari. ORIENS, (4).

5. Yuldasheva, M.A. (2018). Lingvokulturologik birliklarning tarjimasi muammolari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Jo‘raqulova R.X. O‘zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy semali leksik birliklarni tarjima qilish muammolari (2025). Tamaddun nuri jurnali.